

**BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA 4 "K" MODEL
TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI
ЗНАЧЕНИЕ МОДЕЛЬНЫХ ЗАДАЧ 4 «К» НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО
КЛАССА
THE SIGNIFICANCE OF 4 «K» MODEL TASKS IN PRIMARY CLASS
EDUCATION LESSONS**

Idiyeva Gulchehra Izomovna

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti.*

Buxoro davlat pedagogika instituti

Идиева Гулчехра Изомовна

*Факультет дошкольного и начального образования, докторант по специальности
теория и методика воспитания и обучения (начальное образование).*

Бухарский государственный педагогический институт

Idiyeva Gulchehra Izomovna

*Preschool and primary education faculty, doctoral student, majoring in the theory and
methodology of education and training (primary education).*

Bukhara State Pedagogical Institute

<https://orcid.org/0009-0000-1134-0658>

Annotatsiya: Bugun yurtimizda ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor, barcha sohalarda yaratilayotgan ulkan shart-sharoitlar, insonga berilayotgan yuksak imkoniyatlar albatta, barchani ruhlantirgan holatda ijodiy faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga, o'z ilmiy salohiyatini, iqtidorini, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishga ulkan zamin yaratib bermoqda. O'zbekistonda mustaqillik joriy etilgandan beri, ko'plab rivojlangan mamlakatlar singari har tomonlama taraqqiy etib borayotganligi, dunyoga yuz tutayotgani, shuningdek, o'tkazilayotgan har tomonlama oqilona siyosat amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy burilishlar, shu bilan birga, ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar jamiyatimizning insonlarning ijtimoiy hayotida beqiyos taraqqiylashuvga sabab bo'ldi. Bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro tatqiqotlarda munosib o'rinni egallashda kritik, kreativ, mustaqil fikrlashga e'tibor qaratish, ta'limda shu tafakkur usullaridan izchil foydalana olish, zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlashda eng mustahkam tayanch vazifasini bajarishi, bugungi zamon darsliklari va ulrning yaratilish omillari, xalqaro andozalarga mosligi, shuningdek, tarbiya darsliklari va urardagi topshiriqlarning berilishi, o'quvchi tomonidan bajarilish usullari hamda 1-4-sinflar tarbiya darsliklari kesimida 4 „K“ ga mos topshiriqlar tahlili va har bir darslikga oid topshiriqlar statistikasi bu maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: 4 "K" model, topshiriq, tarbiya darslik, ijodiy faoliyat, tafakkur, muammo, yechim, qobiliyat, kreativ fikrlash.

АННОТАЦИЯ. Сегодня внимание, уделяемое образованию в нашей стране, прекрасные условия, созданные во всех областях, высокие возможности, предоставляемые людям, безусловно, вдохновляют каждого, создавая прекрасную почву для всестороннего развития творческой деятельности, проявления своего научного потенциала, таланта и творческие способности дают. С момента обретения независимости в Узбекистане, как и во многих развитых странах, он прогрессирует во всех отношениях, сталкивается с миром, а также с политическими, социальными, правовыми, экономическими и духовными поворотами, в которых осуществляется комплексная рациональная политика. В то же время фундаментальные изменения в области образования вызвали ни с чем не сравнимое развитие социальной жизни людей нашего общества. Развивать современную систему образования, ориентировать на критическое, творческое, самостоятельное мышление, чтобы занять достойное место в международных

исследованиях, иметь возможность последовательно использовать эти способы мышления в образовании, выполнять роль сильнейшей опоры в обучении современных кадры, современные учебники и факторы их создания, их соответствие международным стандартам, а также назначение учебных учебников и заданий, способы выполнения обучающимся, анализ заданий, соответствующих 4 «К» в разделе учебные учебники 1-4 классов и статистика выполненных заданий по каждому учебнику.

Ключевые слова: 4 «К» модель, задание, учебный учебник, творческая деятельность, мышление, проблема, решение, умение, творческое мышление.

ABSTRACT. Today, the attention given to education in our country, the great conditions created in all fields, the high opportunities given to people, certainly inspire everyone, creating a great ground for the comprehensive development of creative activities, the manifestation of one's scientific potential, talent, and creative abilities. is giving Since the introduction of independence in Uzbekistan, like many developed countries, it has been progressing in every way, it is facing the world, as well as the political, social, legal, economic and spiritual turns in which the comprehensive rational policy is being carried out, at the same time, in the field of education fundamental changes have caused an incomparable development in the social life of people of our society. To develop today's education system, to focus on critical, creative, independent thinking in order to occupy a worthy place in international research, to be able to consistently use these ways of thinking in education, to perform the role of the strongest support in training modern personnel, today's textbooks and The factors of their creation, their conformity to international standards, as well as the assignment of educational textbooks and assignments, methods of completion by the student, and the analysis of assignments corresponding to 4 «K» in the section of educational textbooks of grades 1-4 and the statistics of assignments related to each textbook are described in this article.

Keywords: 4 «K» model, assignment, education textbook, creative activity, thinking, problem, solution, ability, creative thinking.

KIRISH. Respublikamizda so'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimidagi ona tili va o'qish o'quv predmetiga doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, xususan, o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning ma'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[2], – deb ta'kidlandi. Bu esa ona tili va o'qish savodxonligi fanlari ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan kreativ fikr sohiblari etib tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Respublikamizda "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning o'z-o'zini anglash, empatiya, muloqot ko'nikmalari, hayotiy kompetensiya, mentorlik, tezkorlik, faollik, samarali qarorlar qabul qilish, turli g'oyalarni o'ylab topish yoki bir qancha vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga yechim topish, bir-birining ijobiy harakatlarini ijtimoiy muhitga yo'naltirish, jarayonni muloqot, madaniy xabardorlik, nizolarni hal qilish, uzluksiz o'z bilimini oshirish kabi ko'nikmalarni 4 "K" modeli orqali rivoj toptirish asosida bugungi kun darslarini samarali tashkil etish va takomillashtirish dolzarb sanaladi.

METODLAR. Ta'lim tizimida yuksak natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda «4K»ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Barcha fanlar qatori ona tili bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosi umumiy madaniyatining zaruriy elementi bo'lib, umumta'lim maktabini bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan erkin, samarali, to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun esa, ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Ta'limni isloh qilish tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq.

O'quvchilarning o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, tanqidiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan o'quv-biluv jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'quvchilarning bilimdonligiga erishish, ularning erkin mushohada yuritishlariga ko'maklashish ehtiyoji avvalambor, o'qituvchilar tomonidan darslarni innovatsion tashkil qilishni, har bir darsda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadiki, bu jamiyat rivojida ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning har sohada yetuk, salohiyatli, muvaffaqiyatga erishish yo'lida tolmaydigan, har vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlaydigan barqaror shaxsni tarbiyalashni yanada takomillashtirishga qaratilgan. O'qitish va o'qitish jarayonida eng keng tarqalgan bilim o'quv materiallari tomonidan beriladi va bu jarayon sinf xonasida olib boriladi. O'quvchiga yetkaziladigan bilimlarning eng ko'p qismi darslik orqali amalga oshiriladi bu borada, darslik o'qitish jarayonini samarali va muvaffaqiyatli qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Darslikning asosiy topshiriqlari tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritishga oid bo'lib, bolada tezkorlikni, aniqlikni, ziyraklikni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashning boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiradigan asosiy qobiliyatlari quyidagilardan iborat:

Tahlil - biror narsani qismlarga bo'lish, har bir qismini tekshirish va qismlarning bir-biriga qanday mos kelishini aniqlash.

Munozara - bu xulosaga kelish uchun bir-biriga mantiqiy bog'langan, dalillar bilan tasdiqlangan bir qator bayonotlardan foydalanish.

Tasniflash - bu biror narsaning turlari yoki guruhlarini aniqlash, har bir toifani boshqalardan qanday farq qilishini ko'rsatish.

Taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish ikki yoki undan ortiq mavzular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatishdir.

Aniqlash atamaning ma'nosini denotatsiya, konnotatsiya, misol, etimologiya, sinonim va antonimlardan foydalanib tushuntirishdir.

Tasvirlash - biror narsaning o'lchami, shakli, vazni, rangi, qo'llanilishi, kelib chiqishi, qiymati, holati, joylashuvi kabi belgilarini tushuntirishdir.

Baholash - bu biror narsaning qiymatini qabul qilingan qiymat standarti bilan taqqoslash orqali qaror qabul qilish.

Tushuntirish - bu nima ekanligini yoki uning qanday ishlashini boshqalar tushunishi uchun aytib berishdir.

Muammoni hal qilish-bu muammoning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish va sabab yoki oqibatlarini to'xtatish yo'lini topish.

Sabab va ta'sirni kuzatish - bu nima uchun nima sodir bo'layotganini va buning natijasi nima ekanligini aniqlash.

Ijodiy fikrlash. Ijodiy fikrlash keng ko'lamli, ochiq ixtiro va imkoniyatlarni kashf qilishdir. Odamlar «o'ng miya» faoliyati haqida gapirganda, ular ko'pincha ijodiy fikrlashni anglatadi. Bu erda keng tarqalgan ijodiy fikrlash qobiliyatlaridan ba'zilar:

Aqliy hujum g'oyalari savol berish va barcha javoblarni, hatto uzoq, amaliy yoki imkonsiz bo'lgan javoblarni ham tezda sanab o'tishni o'z ichiga oladi. Biror narsani yaratish uchun uni materiallarni birlashtirish orqali shakllantirish kerak, ehtimol rejaga muvofiq, biror narsani loyihalash shakl va funktsiya o'rtasidagi bog'liqlikni topish va ma'lum bir maqsad uchun materiallarni shakllantirishni anglatadi.

Aqliy hujumda yechimni takomillashtirish-muammoni hal qilish uchun biror narsadan yangi usulda foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu yangi nuqtai nazarga ega bo'lish uchun uni aylantirishni ehtimol berilganlarni qayta aniqlash, sabab va oqibatlarni o'zgartirish yoki biror narsaga yangicha qarash orqali amalga oshirish mumkin. Muammoni hal qilish uchun bu erda keltirilgan ko'plab ijodiy qobiliyatlardan foydalanish mumkin bo'lgan echimlarni aniqlash va ulardan birini yoki bir nechtasini amalda qo'llash kerak.

Muloqot-vaziyatni tahlil qilish xabarning mavzusi, maqsadi, jo'natuvchisi, qabul qiluvchisi, vositasi va konteksti haqida o'ylashni anglatadi. Xabarlarini baholash ularning to'g'ri, to'liq, ishonchli, obro'li va dolzarbligini aniqlashni anglatadi. Muloqotni shakllantirishda konvensiyaga rioya qilish talab etiladi. Konvensiyalarga rioya qilish tanlangan vosita uchun kutilgan me'yorlardan foydalangan holda muloqot qilishni anglatadi. Bunda tinglash ko'nikmasi ham zarur hisoblanadi. Faol tinglash diqqat bilan e'tibor berishni, eslatmalarni olishni, savollar berishni va boshqa yo'llar bilan bildirilayotgan g'oyalarga jalb qilishni talab qiladi. Muloqotni qamrab oladigan yana bir tushunchalardan biri o'qish ko'nikmasidir. O'qish - bu yozma so'zlar va tasvirlarni yaratuvchisi nima bilan muloqot qilmoqchi ekanligini tushunish uchun dekodlashdir. Ya'ni bildiriladigan yoki bildirilgan fikrni yozma tasvir yoki so'zlar vositasida ifodalashdir.

Nutq fikrni yetkazish uchun og'zaki so'zlar, ovoz ohangi, tana holati, imo-ishoralar, mimika va ko'rgazmali vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Muloqot qilishda, fikrni yetkazishda tushunchalar ham muhimdir. O'z navbatida g'oyalarni qabul qilish g'oyalarni taqdim etishga samarali o'tishni anglatadi.

Texnologiyadan foydalanish har qanday texnologik aloqaning imkoniyatlari va cheklavlarini tushunishni talab qiladi, telefon qo'ng'iroqlaridan tortib to elektron pochta xabarlarigacha barcha jabhalarni qamrab oladi. Yozish, masofa, vaqt yoki har ikkalasi bilan olib tashlangan odam bilan aloqa qilish uchun xabarlarini so'zlar, jumlar va paragraflarga kodlashni o'z ichiga oladi.

Muloqot qobiliyati har doim muhim bo'lib kelgan, ammo 21-asrda fikrlarni aniq ifodalash, fikrlarni ifoda etish, izchil ko'rsatmalar berish va nutq orqali boshqalarni rag'batlantirish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot - bu fikrlar, savollar, g'oyalar va echimlarni samarali almashish - turli madaniyat, yoshdagi va kelib chiqishi bo'lgan odamlar va guruhlar turli xil muloqot uslublari va usullarini talab qilishini tushunishdir. Muloqot uchun hozirgi va rivojlanayotgan texnologiyalardan qanday foydalanishni o'rganish professional va shaxsiy muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Muloqot ko'nikmalarini ifodalash imkon beradigan faoliyatlardan o'quvchilarning do'stlari bilan muloqot qilishlari, masalan, sheriklari bilan parcha o'qish, taqdimot, munozara o'tkazish, o'z his-tuyg'ularini yoki istaklarini bildirish, o'z-o'zini aks ettirishlari bu jarayonda tashkil etiladigan ko'nikmalardan hisoblanadi. Darslikdagi muloqot ko'nikmalarini ifodalash kommunikativ qobiliyatdir. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida ham xuddi shunday ko'nikmalar keltirilgan bo'lib, bu kabi topshiriqlar


o'quvchilarning fikrlash, muloqot, o'zini tutish, muammolarga yechim topish, yangi g'oyalar yaratishga imkon beradi

Hamkorlik-resurs va mas'uliyatni taqsimlash jamoaning barcha a'zolarining optimal ishlashini ta'minlaydi. Guruhdagi g'oyalarni miya hujumi, ularni tanqid qilishda to'xtamasdan, tezda taklif qilish va yozishni o'z ichiga oladi. Qaror qabul qilish guruhga taqdim etilgan ko'plab variantlarni saralashni va oldinga siljish uchun bitta variantga kelishni talab qiladi. Vakolat berish guruh a'zolariga vazifalarni berish va ulardan topshiriqning o'z qismlarini bajarishlarini kutishni anglatadi. Mahsulotlarni, jarayonlarni va guruh a'zolarini baholash nima yaxshi ishlayotgani va qanday yaxshilanishlarni amalga oshirish mumkinligini aniq tushunish imkonini beradi. Maqsadni belgilash guruhdan vaziyatni tahlil qilishni, qanday natijaga erishish kerakligini hal qilishni va erishish mumkin bo'lgan maqsadni aniq ko'rsatishni talab qiladi. Guruhga rahbarlik qilish, barcha a'zolar o'z qobiliyatlariga ko'ra hissa qo'shishlari mumkin bo'lgan muhitni yaratishni anglatadi. Vaqtni boshqarish vazifalar ro'yxatini jadvalga moslashtirish va maqsadlar sari borishni kuzatishni o'z ichiga oladi. Nizolarni hal qilish quyidagi strategiyalardan birini qo'llash orqali yuzaga keladi: tasdiqlash, hamkorlik qilish, murosaga kelish, raqobat qilish yoki kechiktirish kabilarni o'zida ifoda etadi. Jamoa qurish umumiy maqsadga erishish uchun vaqt o'tishi bilan hamkorlikda ishlashni anglatadi.

Hamkorlikka asoslangan pedagogika o'qituvchi hamda o'quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo'lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo'ladi. Yangi maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati ta'minlanadi. Bu maqsad – o'quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo'shimcha ijodiy natijani qo'lga kiritishga o'rgatishdan iborat. Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. [3]

NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitish quyidagi asosiy maqsadlarni qamrab oladi.
“Tarbiya” fanini o'qitishning maqsadlari



Har bir yaratilgan yangi darsliklar yangi 4 “K” modeli asosida ishlangan bo'lib har birida quyidagi topshiriqlar keltib o'tilgan. Topshiriqlar o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishlariga, teran fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantiribgina qolmay, hayotda istalgan vaziyatda turlicha muammolarni hal etishga ko'maklashadi. O'quvchini izlanishga, mushohada yurtishga, har tomonlama topqirlikka yetaklaydi. 4 “K” modeli darslikning asosini tashkil qiladi. Topshiriqlarning berilishi, unga yondashuvlar avvalgi darsliklardan tupdan farq qiladi. Darsliklarda quyidagi usullardan foydalanilgan.

«4K» modeli qo'llaniladigan zamonaviy usul

**Kommunikatsiya
(muloqot)**

**Kritik (tanqidiy)
fikrlash**

**Kollaboratsiya
(hamjihatlik)**

**Kreativlik
(ijodiy yondashuv)**


**Farovonlik va
barqaror rivojlanish**

Tafakkurning teranligi murakkab savollarning mohiyatigacha kira olish qobiliyatida ifodalanadi. Teran tafakkur qilishga qarama-qarshi bo'lgan sifat yuzaki fikrlash bo'lib, inson mayda narsalarga e'tibor qaratib, asosiy qismni ko'rmaydi. Bu topshiriqlarni bajarishda ham bolada xuddi shunday ko'nikma hosil bo'ladi. Bola topshiriqlarning barcha detallariga e'tibor qaratishi talab etadi. Ko'zdan qochirilgan, e'tibor qaratilmagan jihat topshiriqlarni bajarishda kalit bo'lib xizmat qilishi ham mumkin.

Mustaqil tafakkur yuritish bolaning yangi muammolarni qo'ya olishi va boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan ularni yechish yo'llarini topish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tafakkurning ijodiy tavsifi ana shu topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqillikda namoyon bo'ladi.

Shoshma-shosharlikda aql yuritish o'quvchida qo'yilgan savolga atroflicha o'ylamasdan, qaysidir tomonni ushlab olib, yechimni berishga shoshilish, yetarlicha o'ylanmagan javobni va mulohazani aytishida namoyon bo'ladi. Sekinlik bilan fikr yuritish faoliyati esa nerv tizimi tipiga, ya'ni uni sekin harakatlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.[4]

Tarbiya darsliklarida 4 "K" model asosida yaratilgan topshiriqlar ularning salmog'i, o'quvchini rivojlantirilishi ularning zehnini o'tkirlashtirilishi bilan alohida ajralib turadi. Tarbiya darsliklarida 4 "K"ga oid quyidagi topshiriqlar keltirilgan.




1-rasm. Guruh bo'lib ishlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar



→ 2-rasm. Kreativ fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish va emotsional intellektni rivojlantiradigan topshiriqlar

Bu topshiriqlar o'ziga xosligi, o'quvchini hartomonlama teran fikrlashini rivojlantirishga ko'maklashadi. Yorqin ranglar alohida berilish usullari, tanlangan detallar, o'zaro uyg'unlik bu topshiriqlar berilish usuliga xoslikni ta'minlaydi.

Darsliklarda quyidagi topshiriqlar va ularni har bir sinf doirasida berilishi, varqi va o'xshashlik tomonlarini anglash, farqlash mumkin. Ayrim shartli belgilar darsliklar kesimida uchraydi ayrimlari esa umuman keltirmagankigi bilan farqlanadi. Bunda o'quvchining yoshi, tafakkuri, fikrlash doirasi va har bir yosh toifasida egallaniladigan ko'nikmalar inobatga olingan. Har bir darslik va ishchi daftarda shartli belgilar tizimi bor va ular quyidagicha sinflarda ifodalanilgan.



3-rasm. 2-3-4-sinf tarbiya darsligi shartli belgilari

1-jadval.

Darsliklar kesimida shartli belgilar soni					
T/r	Shartli belgilar	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
1	 O'qituvchi yordamida o'rganing	25	49	27	30
2	 Savollarga javob bering	36	49	31	35
3	 Vaziyatni o'rganing	18	15	16	18
4	 Ijodiy topshiriq	6	1	-	-
5	 Uy vazifasi	10	27	21	-
6	 Bo'yang	10			
7	 Yozma topshiriq	22			
8	 Yodda tuting	10	12	13	15
9	 Tabiatni asraymiz	2	3	3	3
10	 Xalq o'g'itlari	11	8	4	4
11	 Guruhlarda ishlash	7	18	16	12
12	 Og'zaki topshiriq	28	17	19	6
13	 Topshiriqni bajaring		9	6	4
14	 Bu – qiziq!		6	16	15

Tarbiya darsliklaridagi shartli belgilar klassifikatsiyasi

MULOHAZALAR

Kreativlik tushunchasini G'arbda ko'pgina olimlar o'rgangan bu muammo bugungi kunga qadar turlicha tahlil etilgan. Bulardan N.N. Nec

hayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o'rgangan bo'lsalar, Agababyan A.R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan [6,7,8].

4 "K" modelini o'rgangan va bu haqidagi ilmiy yondashuvlarni o'zining ilmiy ishlarida bayon etgan D.M. O'rmonova,[5] M.A. Pinskaya, A.M.Mixaylova, Madison, V.Z.Ksenya, M.O. Kaldin, M. S. Dobryakova, O. V. YUrchenko, ye. G. Novikova., ye. Loshkareva, P. Luksha, I. Ninenko, I. Smagin, D. Sudakov kabi olimlar hisoblanib, ta'lim tizimida bu modelning ahamiyatini qo'llanilishi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni keltirib, yoritib berganlar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, 4"K" modeli 4 ta tushuncha: kreativlik, kommunikativlik (muloqot), hamkorlikda ishlash va tandidiy fikrlashni qamrab oladigan model bo'lib, darsliklar aynan shu tamoyil asosida shakllantirilgan. Ta'lim jarayonlarini tashkil etish, rejalashtirishda esa avvalo bugungi kun o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlarini bir qolipda o'tishdan cheklanib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, ijodiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, o'quvchilar orasida yangi g'oyalarni izlab topishlariga, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirgan holda kelajakka nisbatan, o'zida ishonch, yutuqlarga erishishda haqiqiy motivatsiya omili bo'lishi kerak. Bugungi davr ta'lim muhitini inobatga olib, dars jarayonlari yuqori saviyada, o'quvchida yaxlik bilim, ko'nikmani tarkib toptirishga, shuningdek, ta'limni rivojlantirish yo'lida xalqaro tatqiqotlarda qatnashib, munosib natijalarni qayd etishga, shu tafakkur usullaridan izchil foydalana olgan holda zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini

to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. <https://lex.uz/>

Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –B.14.

Dilova N.G. "Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish", diss. 2018-y.

Aslonova O.P. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari", diss. 2020-y

D.M. O'rmonova Takrorlash va mustahkamlash darslarini "4K" modeli asosida tashkil etishda kolloborativ muhitdan foydalanish usullari Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938

De Witt, P (2005). Creative Ability- a model for psychiatric occupational therapy. In Crouch, R. & Alers, V.(eds). Occupational Therapy in Psychiatry and Mental Health. 4 th Edition. London and Philadelphia: Whurr Publishers.

Drapeau Patti. (2014) Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD., – p. 260

Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of

O'rino N.M., Yo'ldosheva D.A. (2020) "Bo'lajak o'qituvchilarni kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari", VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385, Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-394-399

O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 1-sinf: darslik-Toshkent: "Novda Edutainment".2023. – 116 b.

O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 2-sinf: darslik-Toshkent: "Novda Edutainment".2023. – 116 b.

O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 3-sinf: darslik-Toshkent: "Novda Edutainment".2023. – 103 b.

O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 4-sinf: darslik-Toshkent: "Novda Edutainment".2023. – 80 b.